

ECHKICHILIKDA TANLASH VA SARALASH ISHLARI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1096>

Ansatbaev Paraxat Azatbaevich

q.x.f.f.d (PhD), dotsent v.v.b., Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institute

E-mail: paraxat_0802@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada echkilarni echkichilikda tanlash va saralash talablari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *Echki, chatishtirish, selektsiya, sof zotli urchitish, gibridlash.*

KIRISH

Echkichilik — qishloq xo'jaligining foydali va tez rivojlanadigan sohalaridan biri. Echkilar sut, go'sht, teri va jun (moher, kashemir) beradigan universal hayvonlar hisoblanadi. Biroq, yuqori samaradorlikka erishish uchun tanlash (selektsiya) va saralash ishlarini to'g'ri tashkil etish shart. Ushbu ishlarsiz podaning genetik salohiyatini oshirish, kasalliklarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ko'tarish mumkin emas.

Naslchilik xo'jaliklari zotdor taka va ona echkilar individual tartibda tanlanadi va juftlashtiriladi. Echkilarni o'sish va rivojlanishini ta'minlash uchun kerakli ozuqalar tayyorlanib parvarishlanadi. Echkilarning kelib chiqishi va mahsuldorligi alohida o'rganiladi. Seleksiya ishlarida naslli echkilarni takomillashtirishda sof zotli urchitish amalga oshiriladi.

Urchitish usullari

Urchitilayotgan mahalliy zotlarni takomillashtirishda urchitish usullarini maqsadli qo'llash yo'li bilan mahalliy echkilarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari takomillashadi va yangi guruh podalari shakllantiriladi.

Chorvachilikda qo'llaniladigan urchitish usullari kabi echkichilikda ham quyidagi urchitish usullari qo'llaniladi: sof zotli urchitish bir zotga mansub echkilarni o'zaro juftlashdir. Chatishtirish bu ikki, uch va undan ortiq zotlarni o'zaro juftlashdir. Duragaylash bu ikki turga mansub hayvonni juftlashdir.

Sof holda urchitish zotning mavjud foydali belgilarini saqlash va takomillashtirish demakdir. Sof zotli urchitishda qarindosh bo'lmagan (autbridging) va qarindosh bo'lgan (inbridging) juftlash usuli qo'llaniladi. Chatishtirishda ikki va undan ortiq zotlarga yoki duragaylarga mansub hayvonlar juftlashtiriladi.

Echkichilikda chatishtirishning quyidagi usullari qo'llaniladi: qon quyish usulida bir zotning ma'lum bir belgisini yaxshilash maqsadida, masalan, sutdagi yog'ni yaxshilash uchun boshqa zotning nasldor takalaridan bir marta foydalaniladi.

Zavod usuli yangi zotlar va tiplarni yaratish demakdir. Almashlab chatishtirish usulida yaxshilanuvchi zot dastlabki yaxshilovchi zotga mansub takalari bilan chatishtiriladi, olingan avlod esa yanada yaxshilanuvchi zot takalari bilan juftlashtirib boriladi.

Sanoat usulida yaxshilanuvchi zot yaxshilovchi zot takalari bilan bir marta juftlashtiriladi, olingan nasl go'sht etishtirishda foydalaniladi.

Urchitilayotgan mavjud zotlarning mahsuldorligini yanada yaxshilash hamda yangi zot (oila, liniya, tip, kross va boshqa)larni yaratish maqsadida chatishtirish usullari qo'llaniladi. Chatishtirishdan olingan nasllarni saqlash va to'la qiymatli ozuqalar bilan oziqlantirish ularning irsiy belgilarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gibridlash usuli har xil turga mansub hayvonlarni chatishtirishdir. Masalan, echkilarni arxar bilan chatishtirish gibridlash hisoblanadi. Gibridlashdan olingan gibridlar o'zlarining sermahsulligi, yashovchanligi bilan boshqa zotlardan keskin ajralib turadi.

Echkilar selektsiyasida chatishtirish usullarini rejali va to'g'ri amalga oshirish talab etiladi. Seleksiya ishlarida echki zotlarini muntazam ravishda takomillashtirish va zotlarning xo'jalik uchun foydali irsiy belgilarini saqlab qolish muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda naslchilik ishlari bilan jiddiy shug'ullangan xo'jaliklar naslchilik maqomiga ega bo'lib, ularda sof zotli echkilar urchitilmoqda.

Zotning ichida takalarni tanlash, saralash, parvarishlash, nasldorligini barvaqt aniqlash, aniqlangan zotlardan maksimal foydalanish seleksiya ishlaridagi asosiy dasturlar talabidir.

Takalarni voyaga juda tez etilishi ularni 12 oyligida sinab ko'rish imkonini beradi. Takalar bir yarim, ikki yoshga to'lganda, ulardan naslli taka sifatida foydalanish mumkin. Takalarni sinab ko'rish uchun asosiy podadan elita, I klass ona echkilar ajratiladi. Bir bosh taka bilan 50-60 boshgacha ona echki tabiiy qochiriladi. Echkilar bonitirovka paytida ularga baho beriladi. 4,5-5 oyligida eng ko'p 4 va 5 ball olgan takalar zotdor hisoblanadi. Xo'jalikdagi barcha ona echkilar naslli hisoblanadi, yangi tug'ilgan uloqlarning har biri maxsus jurnalda qayd etib boriladi. Unda uloqlarning tug'ilgan vaqtidagi, 4,5-5, 12 va 18 oyligidagi tirik vazni aks etadi hamda qulog'iga raqami belgi taqiladi va bonitirovka ko'rsatkichlari holati yozib boriladi.

Podatarkibi sof zotli, asosan elita va I klassga mansub bo'lgan echkilar bilan to'ldiriladi. Xo'jalikda seleksiya guruhlari tashkil etiladi va podalarda seleksiya ishlari yuqori darajada amalga oshiriladi, hayvonlarni alohida tanlash va juftlash, ular uchun kerakli ozuqalar tayyorlash, parvarishlash va boqish kelib chiqishi va mahsuldorligini alohida hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Echkichilik selektsiyasida asosiy e'tibor organizmi kuchli, sermahsul, gavdasi yaxshi va sifati a'lo darajada bo'lgan echkilarni parvarishlashga qaratiladi.

Echkichilikda naslchilik ishlari eng yaxshi mahsuldorlikka ega bo'lgan echkilarni ko'paytirish, sut sifat ko'rsatkichlarini mustahkamlash va rivojlantirishga yordam beradigan, muntazam ravishda tanlash va saralash ishlari yig'indisidan iborat bo'lgan muhim tadbirlar hisoblanadi.

Kuzgi mavsumda ona echkilarni qochirish oldidan takalar yana bir marta ko'zdan kechiriladi, elita klassga mansub naslli takalar nasldorlik sifati bo'yicha tekshirish uchun tanlab olinadi.

Naslli takalarni avlodlarining sifati bo'yicha tekshirish uchun birinchi klassga mansub ona echkilar ajratiladi. Uloqlarning sifat belgilari onalarining sifat belgilari bilan taqqoslanib, yuqori mahsuldor naslli takadan qochirish uchun boshqa klassdagi ona echkilar tanlanadi. Bunday baholash usuli bilan bir naslli takalarning ustunligi bo'yicha zot andozasining mahsuldorligi taqqoslanadi. Turli klassga mansub ona echkilarning samaradorligi aniqlanadi. Bu tadbirning unumli bo'lishi echkilarni yaxshi boqish va asrash sharoitida birmuncha aniq namoyon bo'ladi.

Naslli takalar avlodlarining sifati bo'yicha tekshirilgandan keyin ona echkilar guruhlarini qochirish uchun qo'yiladi.

Ikki yil ichida a'lo va yaxshi bahoga ega bo'lgan ona echkilar o'z sifatlarini avlodlariga o'tkazsa, naslni "yaxshilovchi" hisoblanadi, ketma-ket ikki marta qoniqarsiz nasl bergan ona echkilar boshqa guruhga o'tkaziladi.

Naslli takalardan avlod olish oldidan avlodboshining mahsuldorlik xususiyatlari, yaxshi nasl berishi bo'yicha unga yaqin (o'xshash) bo'lgan begona ona echkilar tanlanadi. Avlodboshining istalgan belgilari va xususiyatlarini keyingi urchitishda o'zaro o'xshash bo'lgan shu turdagi ona

echkilar bilan chatishtirish orqali amalga oshiriladi. Echkilarda birinchi va ikkinchi bo'g'in avlodlarni yaqin qarindoshlari bilan chatishtirishga ruxsat etiladi: o'g'il x ona, ota x qiz, yarim amma x yarim singil. Bunday usulda chatishtirish bir turdagi avlodlarni olishga yordam beradi. Natijada uchinchi va to'rtinchi avlodda yuqori qimmatli nasl shakllanadi, foydalanuvchi podadagi turdosh bo'lmagan ona echki bilan chatishtirilib, yuqori mahsuldor nasl olinadi. Shuni hisobga olish kerakki, turdoshlik bo'yicha qochirilganda, echki va takalarning tana tuzilishi mustahkam, sog'lom va yuqori mahsuldor, yashovchan nasl beradigan bo'lishi lozim. Keyingi avlodlarda naslni takomillashtirishda ota x nevara yoki evara tipidagi o'rtacha qarindoshlik chatishtirish usullari amalga oshiriladi.

XULOSA

Echkichilikda tanlash va saralash — bu uzluksiz jarayon. Bir-ikki yil ichida to'g'ri amalga oshirilsa, podaning samaradorligi 20–40% ga oshishi mumkin. Zamonaviy fermerlar bu ishlarni ilmiy asosda, veterinariya va zootexniklar bilan hamkorlikda olib borsalar, nafaqat daromadlarini ko'paytiradilar, balki sohaning umumiy rivojiga hissa qo'shadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Арипов У.Х. ва бошқалар. Овцеводство и козоводство. М.: 1990
2. Терентьев В.В. Домашнее овцеводство и козоводство. Алма-Ата. 1989.
3. Mamadaliyev F.X. va boshqalar. O'zbekiston to'q kulrang tivitli echkilarni parvarishlash va naslchilik ishlariga doir tavsiyalar. T.: 1989.
4. Мамадалиев Ф.Х. ва бошқалар. Рекомендации по рациональному кормлению козematок в Узбекистане. Т.: 1989.
5. Мамадалиев Ф.Х. Рекомендации по разведению и племенной работе с тёмно-серыми пуховыми козами в Узбекистане. Т.: 1988.
6. Воробьёв П.А., Орехов А.А. Овцеводство, козоводство и технология производства шерсти и мяса. Москва -1988.
7. Котляров И.Т. ва бошқалар. Инструкции по бонитировке пуховых, шерстных и улокочных коз с основами племенной работы. М.: 1986.
8. Запорожцев Е.Б. Разведение и содержание коз. М- 1983.
9. Зеленский Г.Г. Козоводство. Москва: 1981.
10. Qishloq xo'jalik entsiklopediyasi (echkichilik to'g'risidagi maqolalar). T.: 1969.
11. Turkiya Oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi vazirligi hamda "Denizbank" hamkorligida tayyorlangan "100 ta kitob" to'plamidagi 71-sonli kitob.